



## TARBIYADA INDIVIDUAL YONDASHUV MUAMMOSI VA MEHNAT FAOLIYATINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

*Axborot texnologiyalari va menejment universitet  
Ijtimoiy fanlar fakulteti psixologiya fanlari bo'yicha  
Falsafa doktori (PhD)*

***Egamberdiyev Farxod Tuxtayevich***

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi I kurs talabasi*

***Salomatillayeva Marjona Shavkat qizi***

***Email: salomatillayevamarjona@gmail.com***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarbiya jarayonida individual yondashuvning nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan. Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya berishning zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, mehnat faoliyatining shaxs kamolotidagi o'rni, uning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda pedagogik jarayondagi ahamiyati batafsil tahlil qilingan. Maqolada individual yondashuv va mehnat tarbiyasining o'zaro uyg'unligi orqali barkamol shaxsni shakllantirish masalalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** individual yondashuv, tarbiya, mehnat faoliyati, shaxs rivoji, pedagogika, ijtimoiylashuv, qobiliyat, motivatsiya.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются теоретические и практические основы индивидуального подхода в воспитании. Обосновывается необходимость учета индивидуальных особенностей каждого учащегося в процессе воспитания. Также анализируется роль трудовой деятельности в формировании личности, ее воспитательное значение и педагогические возможности. Раскрывается взаимосвязь индивидуального подхода и трудового воспитания в формировании гармонично развитой личности.



**Ключевые слова:** индивидуальный подход, воспитание, трудовая деятельность, развитие личности, педагогика, социализация, мотивация.

**Annotation:** This article analyzes the theoretical and practical foundations of the individual approach in education. It highlights the importance of considering each learner's individual characteristics in the educational process. The role of labor activity in personal development, its educational significance, and pedagogical potential are also discussed. The interconnection between individual approach and labor education in forming a well-rounded personality is revealed.

**Keywords:** individual approach, education, labor activity, personal development, pedagogy, socialization, motivation.

## **Kirish:**

Zamonaviy pedagogikada tarbiya jarayonini samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish ta'lim va tarbiyaning sifatini oshiradi. Shu sababli individual yondashuv tarbiya jarayonining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi [1.112–113-betlar].

Tarbiyada individual yondashuvning mohiyati.

Individual yondashuv — bu har bir tarbiyalanuvchining shaxsiy psixologik, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya jarayonini tashkil etishdir. Har bir bola o'ziga xos qobiliyat, qiziqish va rivojlanish sur'atiga ega bo'lib, pedagog bu farqlarni inobatga olishi zarur [2. 210–212-betlar].

Individual yondashuv orqali:

O'quvchilarning qobiliyati rivojlanadi;

Motivatsiya oshadi;

Shaxsiy ehtiyojlar hisobga olinadi;

Ta'lim samaradorligi ortadi.

Bu jarayonda pedagogning psixologik bilimlari va kuzatuvchanligi muhim ahamiyatga ega [3.134–136-betlar].

Individual yondashuv muammolari.

Amaliyotda individual yondashuvni to'liq amalga oshirish bir qator qiyinchiliklarga duch keladi:



Sinflarda o'quvchilar sonining ko'pligi;

Vaqt va imkoniyatlarning cheklanganligi;

Pedagoglarning individual ishlash ko'nikmalarining yetarli emasligi;

Metodik ta'minotning yetishmasligi;

Har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganishdagi qiyinchiliklar.

Bu muammolar ta'lim jarayonida individual farqlarni to'liq hisobga olishni murakkablashtiradi [4.260–262-betlar].

Mehnat faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati.

Mehnat faoliyati shaxs tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Mehnat orqali bolalarda mas'uliyat, intizom, mustaqillik, irodaviy sifatlar va jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi [5.60–62-betlar].

Mehnat faoliyati bolani ijtimoiy hayotga tayyorlaydi va uning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu orqali bola o'z mehnatining natijasini baholashni o'rganadi [6.78–80-betlar].

Individual yondashuv va mehnat faoliyatining o'zaro bog'liqligi

Mehnat faoliyatini tashkil etishda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchining qobiliyatiga mos topshiriqlar berish uning rivojlanishini ta'minlaydi.

Masalan: Faol o'quvchilarga murakkab vazifalar berish;

Sustroq o'quvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatish;

Ijodkor o'quvchilarga kreativ topshiriqlar berish.

Bu yondashuv o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga xizmat qiladi [7.150–153-betlar].

### **Tadqiqot metodologiyasi:**

Ushbu tadqiqotda tarbiyada individual yondashuv muammosi va mehnat faoliyatining tarbiyaviy ahamiyatini o'rganishda nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi.



Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv va pedagogik-psixologik konsepsiyalar tashkil etadi [8.10–212-betlar].

Quyidagi metodlar qo'llanildi:

Nazariy tahlil;

Kuzatish;

Suhbat;

Qiyosiy tahlil.

Ushbu metodlar orqali olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, xulosalar chiqarildi.

### **Tahlil:**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi va qiziqishi oshadi.

Kuzatuvlar natijasida quyidagilar aniqlandi:

O'zlashtirish darajasi yaxshilanadi;

Mehnatga bo'lgan mas'uliyat oshadi;

Mustaqil fikrlash rivojlanadi;

O'quvchilar o'z imkoniyatlarini to'liqroq namoyon etadi.

Mehnat faoliyati orqali esa o'quvchilarda irodaviy sifatlar va intizom shakllanadi.

Shuningdek, individual yondashuv va mehnat faoliyatini uyg'unlashtirish tarbiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ammo sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi va vaqt yetishmasligi kabi muammolar mavjud [9.134–136-betlar].

### **Xulosa:**

Tarbiyada individual yondashuv muammosi zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mehnat faoliyati esa shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi muhim vositadir. Ularni uyg'un holda qo'llash orqali barkamol shaxsni tarbiyalash mumkin.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 320 b. (112–125-betlar).
2. Mavlonova R., To‘rayeva O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 384 b. (210–225-betlar).
3. Nishonova S., Alimuhamedova G. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013. – 256 b. (134–148-betlar).
4. Podlasiy I.P. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 512 b. (260–275-betlar).
5. Davletshin M.G. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 220 b. (60–75-betlar).
6. Musurmonova O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009. – 240 b. (78–90-betlar).
7. Raximov A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 360 b. (150–165-betlar).